

QANDLI DIABET KASALLIGINING KELIB CHIQISH SABABLARI, PATOGENEZI VA ZAMONAVIY DAVOLASH USULLAR

Xayitova Mehribon Nuriddin qizi

Samarqand Davlat tibbiyot Universiteti

Davolash ishi fakulteti, 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Qandli diabet kasalligi zamonaviy tibbiyotda eng keng tarqalgan surunkali metabolik kasalliklardan biri hisoblanadi. Kasallik insulin gormonining yetishmovchiligi yoki organizm to'qimalarining insulinga sezuvchanligi pasayishi natijasida yuzaga keladi. Natijada qonda glukoza miqdori ortib ketadi va uglevod, yog' hamda oqsil almashinuvi buziladi. Mazkur maqolada qandli diabet kasalligining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, diagnostika usullari, zamonaviy davolash yondashuvlari, hamda profilaktika choralari ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilindi. So'nggi yillarda qandli diabet bilan kasallanish darajasi keskin oshib bormoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, ushbu kasallik millionlab insonlarning hayot sifatini pasaytirib, turli og'ir asoratlarning rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa yurak-qon tomir kasalliklari, buyrak yetishmovchiligi, diabetik retinopatiya hamda nevropatiya kabi asoratlar qandli diabetning eng xavfli oqibatlari hisoblanadi.

Kalit so'zlar: qandli diabet, insulin, giperglikemiya, metabolizm, endokrin tizim.

Kirish

Qandli diabet zamonaviy tibbiyotda eng keng tarqalgan va dolzarb metabolik kasalliklardan biri hisoblanadi. Ushbu kasallik insulin gormonining yetishmovchiligi yoki organizm to'qimalarining insulinga sezuvchanligi pasayishi natijasida yuzaga kelib, qonda glyukoza miqdorining ortib ketishi bilan tavsiflanadi. Glyukozaning uzoq vaqt davomida yuqori darajada saqlanib turishi organizmning turli tizimlari va organlariga salbiy ta'sir ko'rsatib, jiddiy asoratlarning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Shu sababli qandli diabet nafaqat metabolik buzilish, balki ko'p tizimli kasallik sifatida ham qaraladi.

So'nggi o'n yilliklarda qandli diabet bilan kasallanish darajasi dunyo bo'yicha sezilarli darajada ortib bormoqda. Xalqaro statistik ma'lumotlarga ko'ra, ushbu kasallik global sog'liqni saqlash tizimi uchun muhim muammolardan biriga aylangan. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha millonlab insonlar qandli diabet bilan yashamoqda va bu kursatkich kelajakda yanada oshishi kutilmoqda. Kasallikning keng tarqalishiga urbanizatsiya, turmush tarzining o'zgarishi, kam jismoniy faollik, ortiqcha tana vazni va noto'g'ri ovqatlanish kabi omillar katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Qandli diabetning asosiy turlari sifatida 1-tip, 2-tip hamda gestatsion diabet ajratiladi. 1-tip diabet asosan autoimmun jarayonlar natijasida yuzaga keladi va me'da osti bezining beta hujayralari zararlanishi bilan tavsiflanadi. 2-tip diabet esa ko'proq uchraydigan shakl bo'lib, u insulinga rezistentlik va insulin sekretsiasining nisbiy yetishmovchiligi bilan bog'liq. Gestatsion diabet esa homiladorlik davrida yuzaga kelib, ona va homila salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Qandli diabetning uzoq davom etishi turli og'ir asoratlarning rivojlanishiga olib keladi. Ayniqsa, diabetik retinopatiya, nefropatiya va nevropatiya kabi mikroangiopatik asoratlar, shuningdek yurak-qon tomir tizimi kasalliklari, insult va miokard infarkti kabi makroangiopatik asoratlar kasallikning eng xavfli oqibatlari hisoblanadi. Shu sababli qandli diabetni erta aniqlash, samarali davolash hamda profilaktik choralarini amalga oshirish tibbiyot amaliyotining muhim vazifalaridan biridir.

Kasallik patogenezi

Qandli diabet kasalligining patogenezi murakkab metabolik va gormonal o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Ushbu kasallikning asosiy mexanizmi insulin garmonining yetarli ishlab chiqarilmasligi yoki organizm to'qimalarining insulina sezuchanligi pasayishi bilan bog'liq. Insulin me'da osti bezining Langergans orolchalaridagi beta hujayralar tomonidan sintez qilinadi va organizmda glyukoza almashinuvini boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Normal sharoitda insulin glyukozaning qon oqimidan hujayralarga kirishini taminlaydi hamda uglevod, yog' va oqsil almashuvini muvozanatda saqlaydi

Kasallikning klinik belgilari:

Qandli diabet kasalligining klinik belgilari organizmda glyukoza almashuvining buzilishi natijasida yuzaga keladi. Kasallikning dastlabki bosqichlarida ayrim bemorlarda aniq klinik belgilar kuzatilmassligi mumkin, ammo qonda glyukoza miqdorining ortib borishi bilan simptomlar asta-sekin namoyon bo'la boshlaydi. Qandli diabetning eng asosiy klinik belgilariga polidipsiya, poliuriya hamda polifagiya kiradi. Ushbu uchlik diabetning klassik simptomlari hisoblanadi.

Zamonaviy davolash usullari

Qandli diabet kasalligini davolashning asosiy maqsadi qondagi glyukoza miqdorini me'yoriy darajada ushlab turish, metabolik jarayonlarni barqarorlashtirish hamda kasallikning uzoq muddatli asoratlarni oldini olishdan iborat. Zamonaviy tibbiyotda qandli diabetni davolash kompleks yondashuvni talab qiladi. Ushbu yondashuv dori vositalari bilan davolash, parhez terapiyasi, jismoniy faollik hamda bemorlarning o'z-o'zini nazorat qilish usullarini o'z ichiga oladi.

Qandli diabetni davolashda eng muhim usullardan biri insulin terapiyasi hisoblanadi. Ayniqsa, 1-tip qandli diabetda insulin preparatlarini qo'llash asosiy davolash usuli hisoblanadi. Insulin terapiyasi organizmda yetishmayotgan insulin gormonini tashqi manba orqali qoplashga yordam beradi. Hozirgi vaqtda qisqa ta'sir qiluvchi va uzoq ta'sir qiluvchi insulin preparatlari keng qo'llanilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar yordamida insulin pompalari ham ishlab chiqilgan bo'lib, ular insulin dozasini aniq va uzluksiz tarzda yuborishga imkon beradi.

Qandli diabet zamonaviy jamiyatda keng tarqalgan metabolik kasallik bo'lib, uning asoratlari inson salomatligiga jiddiy xavf tug'diradi. Kasallikni erta aniqlash, sog'lom turmush tarziga rioya qilish, to'g'ri ovqatlanish va muntazam tibbiy nazorat diabetni samarali boshqarishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Guyton A.,Hall J. Textbook of Medical Physiology
2. Fauci A. Harrison's Principles of Internal Medicine
3. American Diabetes Association. Standards of Medical Care in Diabetes
4. Tursunov A. Endokrin kasalliklar klinikasi
5. Dedov I.I. Endokrinologiya